



УМУМТАЪЛИМ МАКТАБЛАРДА
ТАЪЛИМ ТАРБИЯНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ

СЕНТЯБРЬ 2020

Тошкент, Узбекистон



ИЛМИЙ-АМАЛИЙ | МАСОФАВИЙ
КОНФЕРЕНЦИЯ

**"УМУМТАЛЬИМ МАКТАБЛАРДА ТАЪЛИМ
ТАРБИЯНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ"**

**"ESSENTIAL ISSUES OF EDUCATION IN SECONDARY
SCHOOL"**

**"АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ОБРАЗОВАНИЯ В
СРЕДНЕЙ ШКОЛЕ"**



А.Авлоний номидаги халқ таълими тизими раҳбар ва мутахассис ходимларини қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти ҳамда conferences.uz ҳамкорликда!

Ушбу Республика илмий конференцияси бошлаган ишларимизни мантиқий давоми сифатида А.Авлоний номидаги халқ таълими тизими раҳбар ва мутахассис ходимларини қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти ҳамда conferences.uz ҳамкорликда 1 - ОКТЯБРЬ - "УСТОЗ ВА МУРАББИЙЛАР КУНИ" байрами муносабати билан тизимда фаолият олиб борувчи ўқитувчиларни рафбатлантириш мақсадида ТАНЛОВЛИ конференциянинг голиб иштирокчилари тўпламини эълон қиласди.

**"Умумтаълим мактабларда таълим тарбиянинг долзарб масалалари"
[Тошкент; 2020] 1 октябрь 2020 йил. -Тошкент: Tadqiqot, 2020. -19 б.**

Тўпламга киритилган тезислардаги таълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир

©Муаллифлар жамоаси
©Tadqiqot.uz

Контакт редакций журналов: www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амир Темур пр.1, дом-2.
web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел:(+998-94) 404-00-00

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email:info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-00-00

МУНДАРИЖА \ СОДЕРЖАНИЕ \ CONTENT

Qurbanova Fotima Jo'rayevna

BULUT XIZMATLARIDAN UNUMLI FOYDALANADIGAN OFFICE 365.....5

D.G'afforova

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA TEXNOLOGIYA FAN OYLIGINI O'TKAZISH
YUZASIDAN TAVSIYALAR.....7

Ermakova T.V.

DIDACTICAL FEATURES OF MATHEMATICAL TASKS IN THE ELEMENTARY CLASSES.....10

Gulshanoy Ortiqova

SHAXS KAMOLOTI VA KITOBOXONLIK MADANIYATI.....11

Ho'jamova Yulduz Yusupovna

TIL BEMISL VA MUHTASHAM SINOAT.....15

Ibragimova Shoira Turdimuratovna

MAKTAB GEOGRAFIYASINING MAZMUNI.....17

BULUT XIZMATLARIDAN UNUMLI FOYDALANADIGAN OFFICE 365

Qurbanova Fotima Jo'rayevna

Qarshi shahar 20-umumiyl o'rta ta'lif
maktabining oliy toifali o'qituvchisi.

Xolov Xasan, Qarshi shahar XTB uslubchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ish faoliyatimizda ishlataladigan Office ilovalari haqida so'z yuritiladi. Kompyuterimizga o'rnatilgan Office ilovasi bilan bulut texnologiyasidan foydalanadigan Office 365 ning farqlari, imkoniyatlari,

qulayliklari haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Ta'lif uchun Office 365 - bu aloqa, ma'lumot almashish va ilovalarni almashish uchun raqamli maydon hisoblanishi haqida fikrlar, xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: OneDrive, Microsoft Teams, Office 365 Personal, Office 365 Home, Ta'lif uchun Office 365.

Hozirgi kunda hayotimizni, ish faoliyatimizni kompyutersiz tasavvur qilishimiz qiyin. Ayniqsa Office ilovalariga har qadamimizda murojaat qilishga majburmiz. Buning uchun Office 365 dan foydalanishimizni maqsadga muvosif deb hisoblaymiz. Office 365 - bulutga asoslangan obuna echimi. Unda zamnaviy sharoitlarda ishlash uchun eng qulay vositalar mavjud. Office 365 foydalanuvchisi Excel va Outlook kabi eng yaxshi dasturlarni oladi va OneDrive va Microsoft Teams kabi bulut xizmatlarining boy imkoniyatlaridan foydalanadi. Shuning uchun har qanday qurilmadan va dunyoning istalgan joyidan fayllar yaratishi va ular bilan hamkorlik qilishi mumkin. Office 365 Internetga kirishni talab qiladi, chunki har safar Office 365 dasturlari ishga tushirilganda dasturlar tekshiriladi va faollashadi.

Office 2019 to'plamlari va Office 365 rejalarini o'rtasidagi farq nimalarda ko'rindi?

Office 365 obuna rejasini bilan siz barcha qurilmalar uchun Office ilovalarining takomillashtirilgan versiyalarini olasiz. Word, Excel, PowerPoint, Outlook, Publisher, Access (Publisher va Access dasturlari faqat Windows operatsion tizimi mavjud kompyuterlari uchun), shuningdek qo'shimcha OneNote xususiyatlari va imkoniyatlaridan unumli foydalanish mumkin. Umuman olganda Office 365 ni bir nechta qurilmalarga, jumladan Windows kompyuterlariga, Mac kompyuterlariga, Android telefonlari va planshetlariga, iPad va iPhone ga o'rnatish mumkin. Bunga qo'shimcha ravishda, Office 365 da siz OneDrive onlayn-xotirasida joy olasiz va kengaytirilgan Outlook.com himoyasida bo'lasiz. Haqiqiy Office 365 obunasi bilan har doim Office ilovalarining so'nggi versiyalari mavjud bo'ladi.

Office 2019 ni bir martalik xarid qilish, xuddi shu Windows yoki Mac kompyuteriga o'rnatilishi mumkin bo'lgan Word, Excel va PowerPoint kabi dasturlarning klassik versiyalarini o'z ichiga oladi. Ilovalar avtomatik ravishda yangilanmaydi. Yangi versiyasini olish uchun, uning versiyasini chiqqandan so'ng siz Office ni yana sotib olishingiz kerak. Windows va Mac uchun Office 2019 endi bir martalik xarid qilish uchun mavjud. Office xaridlari Office 365 xizmatlariga kirish huquqini ta'minlamaydi.

Office 365 foydalanuvchilarga bir qator rejalarini taklif qiladi.

Office 365 Personal: Bitta foydalanuvchi uchun mo'ljallangan. Asosiy xususiyatlari: uy / notijorat maqsadlarida foydalanish uchun ko'pgina Office dasturlariga kirish (InfoPath va Lync-dan tashqari), bitta Windows kompyuteri va bitta Mac-ni qo'llab-quvvatlash;

Office 365 Home: jismoniy shaxslar va oilalarga qaratilgan. Asosiy xususiyatlari: uy / notijorat maqsadlarida foydalanish uchun ko'pgina Office dasturlariga kirish (InfoPath va Lync bundan mustasno), OneDrive da qo'shimcha 1TB onlayn saqlash;

Ta'lif uchun Office 365: oliy o'quv yurtlari talabalari va o'qituvchilari uchun

"УМУМТАЛЬИМ МАКТАБЛАРДА ТАЪЛИМ ТАРБИЯНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ"

arzonlashtirilgan narxdagi uy uchun kengaytirilgan versiya. Asosiy xususiyatlar: paket 4 yil davomida amal qiladi, uni bitta foydalanuvchi faqat ikkita qurilmada ishlashi mumkin;

Kichik biznes uchun Office 365: 1-10 ishchilar bo'lgan kompaniyalar uchun mo'ljallangan, ish pochtasiga, umumiylaq taqvimlarga, umumiylaq fayllarni saqlash, video va audio konferentsiyalarga, shuningdek korporativ portalga (Exchange Online, Sharepoint Online, Lync Online) kirish huquqini beradi.

Tegishli muassasalardagi talabalar va o'qituvchilar Word, Excel, PowerPoint, OneNote va endi Microsoft Teams, shuningdek qo'shimcha sinf xonalariga tegishli Office 365 Education tizimiga bepul yozilishlari mumkin. Sizga haqiqiy elektron pochta manzili kifoya qiladi.

Maktabning elektron pochta manzilini kriting. Misol uchun:

Ведите адрес школьной электронной почты

Bundan tashqari qo'shimcha ma'lumotlar ham so'raladi.

Elektron pochta manzilingizga qarab, sizning maktabingiz tegishli muassasalar ro'yxatida yo'q, shuning uchun siz quyidagi ma'lumotlarni taqdim etish orqali uni ushbu ro'yxatga kiritishni osonlashtirishingiz mumkin. Sizga ta'lim muassasangizning muvofiqligi to'g'risida xabar beriladi va siz ro'yxatdan o'tishni yakunlay olasiz.

zafarqurbanov@qarshidu.uz

Подтвердите электронный адрес вашего учебного

Название учебного заведения

Тип учебного заведения

Веб-сайт учебного заведения

Город

Страна или регион

Вашей страны или региона нет в списке?

Нажав кнопку **Отправить**, вы разрешаете нам отправить вам письмо после того, как мы подтвердим наличие у вашего учебного заведения соответствующих полномочий. [Заявление о конфиденциальности](#)

Zamonaviy sinfonani yaratish uchun bulutli xizmatlar:

Birgalikda o'quv xonalarini yarating, kasbiy o'quv hamjamiyatlariga qo'shiling va OneDrive, Teams, Skype va boshqalarning kuchi bilan maktab xodimlari bilan aloqada bo'ling barchasi Office 365 Education da.

Maqolamizni quyidagi xulosalar bilan yakunlaymiz:

Office 365 siz kabi ishlaydi ya'ni, hamma vaqt va hamma joyda. Tanish ilovalar va har doim mavjud bo'lgan fayllar real vaqtida yangilanadi, bu esa Windows, Android yoki iOS ga asoslangan har qanday qurilmada o'quv dasturini yaratishni oson va qulay qiladi. OneNote Digital Notebook sizga o'quv materiallarini tashkil qilish va talabalar va hamkasblar bilan osongina aloqada bo'lish imkonini beradi.

Ta'lim uchun Office 365 - bu aloqa, ma'lumot almashish va ilovalarni almashish uchun yagona raqamlı maydon hisoblanadi.

Foydalilanigan adabiyotlar va internet saytlar ro'yxati

- 1.Поздеева Г. П. Cloud Computing in Education // Молодой учёный. - 2015. - №11. - С. 1450-1452.
- 2.<https://www.pcmag.com/reviews/microsoft-office-365-home>
- 3.<https://store.softline.ru/microsoft/microsoft-office-365-business/>
- 4.<https://office365.psu.edu/>

**UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA TEXNOLOGIYA FAN
OYLIGINI O'TKAZISH YUZASIDAN TAVSIYALAR**

D.G'afforova

Urgut tumani 121-maktab
Sarvarbek4534 gmail.com

Anotasiya; Ushbu maqola umumiy o'rta ta'lif maktablarida texnalogiya fan oyligini o'tkazish yuzasida tavsiyalar, fan oyligini o'tkazish barobarida o'quvchilardagi kreativlikni rivojlantirish va yashirinib yotgan motivatsiyalarni ro'yobga chiqarish masalalari xususida muloxazalar yuritigan.

Kalit so'zlar; STEM, pedagogik innovatsiya, ijodkorlik, samaradorlik, milliy hunarmandchilik, kompotensiya, tadbirlar, ochiq darslar.

Bugungi kunda ta'lif soxasida pedagogik innovatsiya va ta'lif jarayonini yangilash g'oyalarining paydo bo'lishi o'qituvchi faoliyati yangilanishini talab etmoqda . Texnalogiya faninig o'qitishdan asosiy maqsad o'quvchilarda kreativlikni rivojlantirish , STEM yo'nalishi asosida fanlarni integratsiyasini kuchaytirish , har bir o'quvchini ijodkorga aylantirishga , turli manbalar yordamida mustaqil bilim olishga bo'lgan munosabatlarini o'zgartirishga , yangi yashirinib yotgan motivatsiyalarni ro'yobga chiqarish va milliy hunarmandchilik texnalogiyasini puxta egallashda , zamonaviy ishlab chiqarishning bozor munosabatlariga asoslangan talablar asosida professional tayyorgarligini oshirishda va jismoniy mehnat turlaridan samarali foydalanishga oid bilimlarni amaliyotda to'g'ri qo'llay bilish malakasini egallahsga undaydi

O'quvchilar qiziqishlarini yanada rivojlantirish , amalda bajargan ishlarini ommaga taqdim etish va fanni yanada o'quvchilarga qiziqarli bo'lishi yo'llaridan biri fan oyliklarini yuqori darajada o'tkzishdir .

Texnalogiya fan oyligining o'tkazishning asosiy maqsadi;

- Fan oyligi davomida o'quvchilar kreativligini yanada rivojlantiruvchi tadbirlar , musoboqalar , seminarlar , viktorinalar tashkil etish;
- o'zbek milliy qadriyatlarimiz , urf odatlarmiz , milliy hunarlarimiz va milliy taomlarimizning tayyorlanish texnalogiyasini yanada chuqurroq o'rganish;
- nazariy olgan bilimlarini amaliyotda qo'llash ko'nikma va malakalarini hosil qilish hamda ko'rgazmali tajribalardan unumli foydalanish;
- hunar egallagan o'quvchilar ishlarini ommaga taqdim etish va ularni rag'batlantirish
- o'quvchilarda jamoa bilan ishllash ko'nikmalarini shakillantirishdan iborat .

Texnalogiya fan oyligini tashkil etish va o'tkazish quyidagi tartibda bajarilishi maqsadga muofiq;

- umumtalim maktablarida texnalogiya fan oyligini o'tkazish yuzasidan chora tadbirlar rejasini ishlab chiqish;
 - amaliy fan oyligi [texnalogiya] ochilishiga bag'ishlab tadbir tashkil etish . Bunda fanga oid ko'rgazmalar , fan haqida umumiy malumotlar o'quvchilar tomonidan aytilishi , qiziqarli saxna ko'rinishi tashkil etish;
 - fanga oid qiziqarli malumotlar va internet saxifalaridan olingen fan yangiliklari haqida materiallar jamlangan devoriy gazetalar tanlovini sinflar kesimida tashkil etish;
 - o'quvchilar tomonidan tayyorlangan amaliy ko'rgazmalar , ular haqida malumot va tayyorlanish texnalogiyasini tushuntirib berish ishlarini tashkillashtirish;
 - fanga oid yangiliklar haqida malumotlarni jamlash hamda ommaga taqdim etish;
- Fan oyligi boshlanishi va yakunida umutalmi maktab o'quvchilarini bilimini DTS va o'quv dasturiga moslik darajasini aniqlash maqsadida sinflar kesimida test sinivlari olinadi

"УМУМТАЛЬИМ МАКТАБЛАРДА ТАЪЛИМ ТАРБИЯНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ"

. O'quvchilar maskur fandan o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim , ko'nikma va malakalarining monitoringi o'tkazilib , uni metod birlashmaga taqdim etish.

Ochiq darslarni tashkil etish;

- Texnalogiya fani bo'yicha ochiq darslarni o'tkazishda axborot kommunikatsion va ilg'or pedagogik texnalogiyalardan foydalanib mashg'ulotlarni tashkil etish;

- texnologiya fanidan yaratilgan elektron darsliklar , QR kod va virtual qo'llanmalardan dars jarayonida samarali foydalanish usullarini namoyish eta bilish;

- ilg'or pedagogik texnalogiyalardan foydalanilgan dars ishlanmalari tayyorlash va ommaviy axborot vositalari orqali chop etishga erishish;

Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish ;

- fan oyligi davomida sinflar kesimida "mohir qo'llar, 'pazanda', 'yosh texnolog', 'orasta qizlar' nomli ko'plab viktorinalar, musoboqalar tashkil etish;

- 'men tanlagan hunar' nomli ko'rgazmalar , yarmarkalar tashkil etish;

- 8-9- sinf o'quvchilari va mahalliy imkoniyatlardan kelib chiqqan holda shaxar, viloyat markazlaridagi , tuman hududidagi kasb va hunar egalari , olimlar, darslik mualliflari,ustoz-shogird yo'nalishidagi ustiz o'qituvchilar bilan uchrashuvlarni o'tkazish;

- o'quvchilar ijodiy ishlari [hunar turlaridan namunalar, yaratgan innovatsion texnik qurilmalar , yangi yaratilgan ixtiro namunalari, krasvordlar, referatlar, bukletlar, qo'lda yasalga jixozlar] yuzasidan tanlovlар o'tkazish;

- fan oyligi davomida texnalogiya fani yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlariga, kasb-hunar kollejlariga , ishlab chiqarish korxonalariga ekskursiyalar tashkil etish;

- texnalogiya o'qituvchilariga metodik yordam berish uchun tumanlarda tashkil etilgan tayanch mакtablar qoshida seminar tashkil etish maqsadga muofiq;

Fan oyligini yakunlash;



- texnalogiya fan oyligi yakuniga bag'ishlangan tadbir tashkil etish. Ushbu tadbirda iqtidorli , izlanuvchan , hunar egallagan o'qituvchi va o'quvchilar mexnatlarining sarhissobi , ulardagi ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish borasida qilingan ishlarni qadrlash va baxolash maqsadida tashkil etiladi.

- barcha faol o'qituvchi va o'quvchilar rag'batlantiriladi;
- maktablarda o'tkazilgan fan oyliklariyuzasidan tayyorlangan hissobotlar to'planib maktab metodbirlashmasida saqlanadi.

Texnalogiya fan oyligi doirasida o'tkazilgan "pazanda qizlar" tanlovida ishtirok etgan 6 - sinf o'quvchilari va ularning tayyorlagan taomlari

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. Pedagogik texnalogiya asoslari[xalq ta'limi xodimlari uchun qo'llanma]- T; O'qituvchi , 2004
- 2.Karimov I.A. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqiyyotining poydevori. - T; Sharq nashriyot - matbaa konserni, 1997
- 3."Ixtiolar, foydali modellar va sanoat namunalari "to'g'risidagi qonun O'zbekiston ixtirochilar va ratsionalizatorlar jamiyatining Respublika Kengashi.Rasmiy hujjatlar to'plami.N 2.-T.,1994.4-28 b.
- 4.Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnalogiyalar . - Toshkent □ Moliya, 2003.

DIDACTICAL FEATURES OF MATHEMATICAL TASKS IN THE ELEMENTARY CLASSES.

Ermakova T.V.

Teacher of school № 91
Yakkasaray district, Tashkent

Abstract: The article reveals modern approaches to teaching mathematical problems in primary grades, methods and techniques of didactics.

Key words: didactics, method, result, mental activity

Teaching mathematics is an essential component of primary general education.

This subject plays an important role in shaping the ability to learn in younger students. The main goals of primary education in mathematics are: mathematical development of younger students; formation of a system of initial mathematical knowledge; fostering interest in mathematics, in mental activity.

Initial teaching of mathematics lays the foundations for the formation of methods of mental activity: students learn to analyze, compare, classify objects, establish cause-and-effect relationships, patterns, and build logical chains of reasoning. Studying mathematics, they acquire certain generalized knowledge and methods of action. Universal mathematical methods of cognition contribute to a holistic perception of the world, allow building models of its individual processes and phenomena, and are also the basis for the formation of universal educational actions.

The peculiarity of the initial stage of education lies in the fact that it is at this stage that the formation of elements of educational activity should begin among students. On the basis of this activity, the child develops theoretical consciousness and thinking, and the corresponding abilities develop (reflection, analysis, mental planning); at this age, children also develop needs and motives for learning.

In this regard, the following most important methodological principles are used as the basis for the selection of the content of mathematical education in primary school:

- analysis of specific educational material from the point of view of its general educational value and the need to study in primary school;
- the possibility of wide application of the studied material in practice;
- the relationship of the introduced material with the previously studied; ensuring continuity with preschool mathematics preparation and the content of the next stage of education in secondary school;
- enrichment of the mathematical experience of junior schoolchildren by including in the course new questions that were not previously studied in primary school;
- development of interest in mathematics.

Thus, the solution of these problems will ensure that junior schoolchildren realize the universality of mathematical methods of understanding the world, the assimilation of basic mathematical knowledge, the connections of mathematics with the surrounding reality and with other school subjects, as well as personal interest in expanding mathematical knowledge.

Bibliography

- 1.Delan Yu.G. Various forms of work in mathematics lessons in elementary school in the process of solving word problems // School of the Future. - 2014. - No. 1. - P. 66-68.

SHAXS KAMOLOTI VA KITOBOXONLIK MADANIYATI

Gulshanoy Ortiqova

Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, 3-maktab O'zbek tili fani o'qituvchisi
E-mail: gulshanortiqova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezisda kitobxonlikning bugungi kundagi axvoli, uning rivoji uchun amalga oshirilayotgan ishlarning mohiyati va ahamiyati atroflicha tushintirib o'tildi.

Kalit so'zlar: kitobxon, ziyoli, komillik, shaxs, ma'rifat, kitobxonlik madaniyati.

Olimlar, ziyorolar, mamlakat va millat kelajagi uchun chuqur qayg'urganlarni yaqin-yaqingacha bir narsa qiynab kelardi: nega yoshlarimiz o'rtasida kitobxonlik madaniyati pasayib ketdi, nima uchun yerdan ko'kka ko'taradigan, bizni barkamollik sari yetaklaydigan, insonlar qalbiga yorug'lik va iliqlik kiritadigan, oq bilan qora, yaxshilik bilan yomonlik, vayronkorlik bilan bunyodkorlikning farqini ongli ravishda anglatishga yordam beradigan, insoniyat tomonidan yaratilgan eng noyob kashfiyot - kitobning qadri tushib ketmoqda? Ne sababdan ayrimlar kitob o'qiganlarni zamondan orqada qolayotganlar qatoriga qo'shib qo'ymoqda?

Darhaqiqat, bu savollar barchamizni qiynar edi. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2016 yil 19 oktabrda Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati-O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining VIII s'yezdidagi saylovoldi ma'ruzasida bildirilgan ayrim fikrlari xususida to'htalmoqchi edim. Ma'ruzada bugungi kunda axborot - kommunikatsiya texnologiyalari, Internet tizimini keng rivojlantirmasdan turib, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilash, barqaror taraqqiyotga erishish haqida so'z yuritish mumkin emasligiga e'tibor berilgan.

"Ayni paytda, - deydi Shavkat Miromonovich, - axborot-kommunikatsiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni o'zlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishga, ularni kitob bilan do'st bo'lismga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Buning uchun, avvalo, milliy adabiyotimiz va jahon adabiyotining eng sara namunalarini ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish va ularni keng targ'ib qilishga alohida e'tibor berishimiz muhim ahamiyat kasb etadi". ("XXI asr", 2016, 20 oktabr)

Gapning ochig'ini aytadigan bo'lsak, ushbu fikrlar mamlakatimizdagi barcha ziyorolar, millat kelajagi, uning ma'naviy barkamolligi uchun tashvishda bo'lganlarning yurak-yuragidagi gap bo'ldi. Ana shu fikrlar bilan oshno bo'lib turganimizda, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovichning "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida" (2017 yil 12 yanvar)gi farmoyishi e'lon qilindi. Mazkur farmoyish kitob, kitobxonlik madaniyatining jamiyat ma'naviy hayotidagi o'rni va rolini yana bir yangi bosqichga ko'targanligi bilan izohlanadi. Ta'kidlanishicha, bugungi kunda matbuot, noshirlik va axborot sohasida tegishli huquqiy asos yaratilgan bo'lib, 10 dan ortiq qonun va 30 dan ortiq qonunosti hujjatlari qabul qilingan. 1677 ta matbaa korxonalari, 118 ta nashriyot davlat ro'yxatiga olingan. Zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 14 ta hududiy birlik axborot-kutubxona markazi, tuman va shahar markazlaridagi ta'lim mussasalarida 200 ga yaqin axborot-resurs markazlari tomonidan aholiga axborot-kutubxona xizmatlari hamda "Kitob olami", "Sharq ziyokori" va "O'zdavkitobsavdota'minot" majmualari tomonidan kitob savdosi xizmati ko'rsatish yo'lga qo'yilgan.

Farmoyishning ibratli jihat shundan iboratki, unda kitob mahsulotlari nashr etish, tarqatish, kitob mutolaasi, kitobxonlik madaniyatining bugungi kundagi holati, mavjud

kamchilik, xatolar ro'y-rost ochib berilgan. Ayniqsa, badiiy, ma'rifiy, ilmiy-ommabop, tarbiyaviy, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan adabiyotlarni chop etish, ular bilan ta'lim muassasalarini ta'minlash, milliy va jahon adabiyoti namoyandalarining yetuk asarlarini saralash, tarjima qilish ishlari puxta o'ylangan tizim asosida tashkil etilmagani, ta'lim va madaniyat muassasalari uchun kitob xarid qilishga mablag'lar yetarli darajada mavjud bo'lган manbalar hisobidan jalb etilmayotgani, kitob sotishga ixtisoslashgan korxonalar tomonidan ta'lim muassasalari, kutubxonalar va mahallalarda yangi kitoblar taqdimotlarini o'tkazish, mutolaa madaniyatini oshirish, shu jumladan, ommaviy-axborot vositalari orqali targ'ibot-tashviqot qilishga qaratilgan tadbirlar yuksak talablar darajasida emasligiga alohida e'tibor berilgan.

Mamlakatimiz rahbarining kitob, kitobxonlik madaniyatini yaxshilash to'g'risida kyunib gapirayotganliklarining chuqur falsafasi bor. Birinchidan, yuqorida qayd etilgani kabi, kitob insonni yerdan ko'kka ko'taruvchi, uning ma'naviy quvvatini oshiruvchi buyuk kuch hisoblanadi. Ikkinchidan, kitob insoniyatning tarixiy xotirasi, barchamizni o'z ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy zaminimizni mustahkamlovchi, kelajakni yorqin ko'rsatib borishga qodir mash'ala hisoblanadi.

Shuning uchun ham bizning yurtimizda ilm olish, kitob yozish, ijod qilish har doim ham millatning mavjudligi va u nimaga qodir ekanligini ko'rsatuvchi muqaddas tushunchalar hisoblanadi. Arastu hakimdan Abu Ali Ibn Sinoga, Aflatundan-Abu Rayhon Beruniygacha, Jaloliddin Rumiyan - Alisher Navoiygacha, Sohibqiron Amir Temurdan - Muhammadsharif Gulxaniygacha yuzlab, minglab mutafakkirlarning shakllanishi, dunyoga tanilishi, zamonlar oshsada ahamiyati yo'qolmaydigan tadqiqotu kashfiyotlari faqat va faqat kitob orqali yuz berdi. Ularning bugungi avlod tomonidan chuqur o'rganilishi, ular ilmiy-ma'rifiy bisotiga bot-bot murojaat qilishning sababi ham mutafakkirlarimiz tomonidan yaratilgan kitoblar tufaylidir.

Sharqda axloq-odob borasida buyuk asarlar yaratgan Muhammad Jabalrudiyning kitob haqidagi quyidagi firklariga bir qulq tutaylik: "Ey aziz! Kishi uchun kitobdan azizroq va yoqimliroq suhbatdosh yo'qdir. Kitob fasohat, balog'atda, latofatda tengi yo'q, munofiqlikdan holi hamrohdir. Yolg'izlikda va g'amli ayyomlarda munis ulfatdir. Unda na nifoq boru, na gina. U shunday hamdamki, so'zlarida yolg'on va xato bo'lmaydi. Suhbatidan esa kishiga malollik yetmaydi. U o'z do'stining dilini og'ritmaydi. Yuragini esa siqmaydi. U shunday rafiqdirki, kishi orqasidan g'iybat qilib yurmaydi. Uning suhbatidan senga shunday fayzli foydalar yetadiki, bunday foydani odamlardan topa olmaysan. Aksincha, aksar odamlar suhbatidan kishiga zarar yetadi. Kitobdek do'st ichida barcha ilmu hilm mujassamdirki, u kishilarni o'tmishdan va kelajakdan ogoh qilib turadi. Shuning uchun ham "Kitob aql qal'asidir", deganlar". (Mashriqzamin-hikmat bo'stoni. -Toshkent, 1997. 39-bet)

Haqiqatdan ham, kitob barchamizni ezgulikka undaydigan, oldimizda turgan barcha muammolarni hal etishga yordam beradigan kuchdir. Shuning uchun ham yurtimizda kitob bilan oshno bo'lgan, kitobni suygan, kitob yozgan, kitobni muqaddas bilib, ko'z qorachig'idek asraganlarni ziyoli deb ataganlar. Ziyoli-nur tarqatuvchi, u o'zining xatti-harakatlari, faoliyati bilan jamiyatni nurlantiruvchi, ma'naviy-ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchilar hisoblangan.

Bunga uzoq va yaqin tariximizdan misollar ko'p. Masalan, ma'rifatparvar vatandoshimiz Ishoqxon Ibrat o'z uyida kattagina, boy kutubxona tashkil qiladi va uni "Kutubxonai Ishoqiya", deb ataydi. Ibrat arxividagi kitoblar ro'yhati shuni tasdiqlaydiki, kutubxonada ta'lim-tarbiya va o'qitishga oid o'zbek, rus, turk, tatar, fors-tojik tillarida ko'plab kitoblar bo'lgan. Bu kutubxonadan nafaqat o'zi, shuningdek, qishloq aholisi ham unumli foydalangan. Ishoqxon Ibrat o'z maktabi o'qituvchilarini kutubxonada saqlanuvchi kitoblar bilan ta'minlagan. Kutubxonaning mакtab o'qituvchilariga bag'ishlangan qismida Saidrasul

Saidazizovning "Ustodi avval", "Abdulla Avloniyning "Birinchi muallim", "Turkiy guliston yohud axloq", Rustambek Yusufbek hoji o'g'lining "Rahbari hisob" kabi ko'plab darslik, o'quv qo'llanmalari saqlangan. Ibrat kutubxonasi doimiy ravishda kattalashib borgan. U kutubxona a'zolarining kitob olish va o'qib bo'lgach, uni topshirish daftarlarini ham tashkil qilgan, a'zolarning, ayniqsa, yoshlarning kitob o'qishlarini Ishoqxonning o'zi nazorat qilib borgan. (Ibrat. Ajziy. So'fizoda.-Toshkent, 1999.-38 bet)

Ishoqxon Ibrat kabi ziyoli, ma'rifatparvar yurtimizda juda ko'plab yetishib chiqishgan. Ularning barchasi o'z kutubxonalariga ega bo'lishgan. Bunday shaxsiy ziyo maskanlaridan oddiy xalq juda unumli foydalanishgan. Shu o'rinda mazkur Prezident farmoyishidagi bir holatga e'tibor berish lozim. Bu hududlarda yozuvchi, shoirlar ishtirokida kitob bayrami va yarmarkalarini tashkil etish, aholi o'rtasida badiiy jihatdan yuksak milliy va jahon mumtoz adabiyotlari namunalarini targ'ib qilish, kitobxonlar, bosma va elektron kitob ishlab chiqaruvchilar, kitob sotuvchilar hamda kitobxonachi va targ'ibotchilar orasida turli tanlovlardan o'tkazish masalasidir.

Darhaqiqat, bu o'ta zarur masala. O'z shaxsiy kuzatuvlarim natijasida shuni aytishim mukinki, bugungi kunda oilaviy kutubxonasi bor yuzlab, minglab vatandoshlarimiz mavjud. Ularning kutubxonalarida shunday noyob, nodir kitoblar borki, ular juda kamyob va yagona nusxada. Biz, "Eng yaxshi kitobxon oila" tanlovini o'tkazish orqali o'sha nodir asarlar nafaqat mazkur oilaning, shuningdek, butun jamiyatning ma'naviy mulkiga aylanishini, ulardan qo'ni-qo'shnilar, soha mutaxassislari samarali foydalanishlarini istardik. Oilaviy kutubxona faqatgina uyning bezagi, uy egasining "ziyoliligi"ni bildiruvchi belgi bo'lishini istamas edik. Shu ma'noda, oilaviy kutubxona tanlovida u yoki bu kitobning chiroyliligi, sahifalarning buklanmaganligiga emas, aksincha, uning qay darajada ko'p o'qilganligini anglatuvchi ko'rsatkichlariga e'tibor berish lozimligini ko'rgimiz keladi.

Endi bugungi kitoblar, ayniqsa badiiy asarlar hususida ayrim fikrlarni bayon etsak: ma'lumki, kitob umuman, badiiy asar kishilarning dunyoqarashi, ijtimoiy-siyosiy salohiyatini ma'naviy barkamolligini ta'minlashi lozim. Bunday asarlar yaratilmoqda, xalqimiz, ayniqsa, yoshlарimiz ularni o'qishdan charchamayapti. Ammo, buguni asarlarning barchasiga ham shunday baho qo'yish mumkin emas. Ayrim asarlar yaxshi niyatda yaratilayotgan bo'lsada, ammo ular "teskari samara" bermoqda. Turli salbiy ko'rinishlar, zo'ravonlik, ur-yiqt, odamlarda "olomon fikrlash" darajasini ko'tarishga urinish, fahsh illatlarni targ'ib etish kabi holatlar ba'zi asarlarda avj olayotganing guvohi bo'lmoqdamiz.

Mutafakkir-allomalarimiz johillikning birinchi belgisi-go'zallikni ko'rmaslikdir, deydilar. Haqiqatdan ham shunday. Atrofimizda shuncha yangiliklar, yangilanishlar, islohatlar sodir bo'lmoqda, odamlarimiz tafakkur tarzi o'zgarmoqda. Ana shu ijobiy holatlarni badiiy jihatdan pishiq asarlar orqali xalqimizga, ayniqsa yoshlарimizga yetkazish juda to'g'ri bo'lar edi.

Madaniyat, san'at, ayniqsa badiiy adabiyotda zamonamiz qahramonini topish, uning obrazini yaratish, nazarimizda, o'ta dolzarb masalalardan birdir. Prezident farmoyishida ko'rsatilgan eng muhim masalalardan biri ham shunda. Ayrimlar zamonamiz qahramonini "ko'rmaydilar". Ammo, shu narsani alohida ta'kidlash lozimki, bunday qahramonlar biz bilan birga, oramizda, ular har kuni jasorat ko'rsatmoqdalar. Ayb - biz ularni ko'rmanligimizda. Angren - Pop temir yo'lida Farhodning jasoratini takrorlagan, chegarani mustahkamlashda mardlik ko'rsatgan, yangi texnologiyalar asosida fermerlik harakatining unumdarligini oshirayotgan, turli jahon arenalarida mamlakat bayrog'ini baland ko'tarayotganlar-bular zamonamiz qahramonlari emasmi?

Xalqimiz aynan ana shunday kitoblarni kutmoqda. Ayrim vatandoshlarimiz "hozirgi yoshlarga jiddiy badiiy asarlarni tavsiya etgan bilan, ular bunday kitoblarni o'qimaydilar, chunki zamon o'zgardi", deyishmoqda. To'g'ri, zamon o'zgardi. Ammo bizning o'zbekligimiz o'zgargani yo'q. Shunday paytda, yoshlарimizning kitobxonlik madaniyatini

oshirish, ular ma`naviy ehtiyojini shakillantirish uchun nimanidir tavsiya etishni ba`zan unutayotganga o'xshaymiz. Yoshlar ma`naviy ehtiyojini shakillantirish uchun ularga ma`noli asarlar tavsiya etishimiz lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev o'z farmoyishida kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish lozimligiga alohida urg'u bergan. Ho'sh, kitobxonlik madaniyati deganda nimani tushunamiz? Bular, fikrimizga quyidagilardan iborat: o'zining kasbiy - mutaxassislik hamda badiiy - ma`naviy barkamolligini oshirish uchun kitobni tanlay olish va o'zi uchun zarurini o'qish; kitob ustida ishlash malakasini obdon o'rjanib olish va unga chuqur amal qila bilish; kitobni mustaqil o'qiy bilish; o'qigan kitobning asosiy mazmunini talqin qila bilish, uning fusunkor olamiga kira bilish; o'qiganlardan hayotiy xulosalar chiqarish; kitobning kerakli, zarur joylarini yon daftarchaga ko'chirib olish, notanish bo'lgan so'zlarni esda saqlab qolishga intilish; muntazam ravishda o'qish ko'nikmasiga ega bo'lism; kitob bilan muomalada eng qadron do'stingga munosabatda bo'lganday e'tibor bilan qarash; kitobni yaroqsiz holiga keltirmaslik uchun undan to'g'ri foydalana bilish; kitobni shoshilmasdan, o'ylab, diqqat-e?tibor bilan o'qish malakasiga ega bo'lism, kutubxona kartotekalari bilan ishlay bilishni o'rganish; o'qigan kitobni do'stlar bilan o'rtoqlashish, yaxshi kitobni ularga tavsiya qilib, uni boshqalar ham o'qib chiqishiga erishish; har bir yaxshi kitobni ilm qal`asining kaliti deb bilib, uning boqiy umrini ta'minlash.

Nazarimizda, mazkur farmoyish O'zbekiston ijtimoiy-madaniy muhitini yanada barqarorlashtirishga, yoshlarimizda kitobxonlik darajasini oshirishga, pirovard natijada xalqimiz turmush tarzini yanada farovon qilishga xizmat qiladi. Shu o'rinda yoshlarimizning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish maqsadida ularning oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish davrida "O'zbek tili va adabiyoti" fanidan insho yozish bo'yicha qo'shimcha sinovni tashkil etish maqsadga muvofiq deb bilamiz. Gap shundaki, har yili kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarni 550 - 600 ming atrofidagi yigit-qizlar bitirib, oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishga harakat qilishadi. Yozilishi tavsiya etilayotgan insho esa ularning badiiy asar o'qishga bo'lgan mas'uliyatini, so'zsiz oshiradi.

Ayni paytda, yoshlarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish uchun farmoyishda belgilangan sotsiologik so'rovnomani o'ta mas'uliyat bilan tashkil etish lozim. Bunday so'rovnama bir tomonidan, yoshlarning kitobxonlik madaniyati darajasini aniqlasa, boshqa tomonidan, jamiyat talab etayotgan muammolarni aniqlash, mavzular tanlashga imkon beradi. shuningdek, mutaxassislar, soha xodimlari "Yoshlarga tavsiya etilayotgan 100 ta asar" ro'yxatini tuzish, unda milliy va jahon adabiyotining nodir durdona asarlarini o'qishni tavsiya etish ham muayyan ahamiyatga ega bo'ladi, deb o'ylaymiz.

Kitob o'qish barchamizning ma`naviy olamimizni boyitadi, so'zlashuv madaniyatimizni oshiradi. Ayrim hollarda muqaddas o'zbek tilimizni ayrim vatandoshlarimiz "xizmati" tufayli dag'allashib, kambag'allashib borayotganligining oldini olish uchun ham kitob o'qish lozim. Vaholanki, bizning o'zbek tilimiz dunyodagi eng boy tillar qatoriga kiradi. A.S.Pushkin butun ijodi davomida jami 21 mingta so'z qo'llagan bo'lsa, Shekspir asarlarini tilida jami 20 mingdan ortiq so'z qo'llanilgan. Ispan olimlari Servantesning ijodida 18 ming so'z qo'llanilgani haqida ma'lumot bergenlar. Buyuk bobomiz Alisher Navoiy asarlarida qo'llanilgan so'zlar soni esa 26 mingdan ortiq ekan.(Qodirov P. Til va el.-Toshkent, 2010-127 bet)

Ana shu milliy boyligimizni avaylab-asrash uchun ham kitob o'qish lozim. Darhaqiqat, kitobxonlik madaniyatini oshirish davr talabi.

TIL BEMISL VA MUHTASHAM SINOAT

Ho'jamova Yulduz Yusupovna

Buxoro viloyati G?ijduvon tumani

22-sonli MTT mudirasi

yuxujamova@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbek tilining keng imkoniyatlari, o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi, o'zbek tilining taraqqiy topishi va rivojlanishi to'g'risida fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlari: o'zbek tili, davlat tili, ona tili va adabiyot, Abdulla Avloniy, Alisher Navoiy

Har qanday xalqning ona tili va adabiyoti uning milliy ruhi va o'zligining madaniy-ma'rifiy olami, milliy g'oyasining asosi hisoblanadi. Ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniying "Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurg'on oyinasi til va adabiyotduri. Milliy tilni yo'qatmak millatning ruhini yo'qatmakdur" degan hikmatli so'zlari ham bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi.

Til-millat kaliti. Zero, xalq qalbiga yo'l uning ona tilini bilish, madaniyati va an'analarini hurmat qilishdan boshlanadi.

Olamni bilish, bilimdon va raqobatdosh kadr bo'lib yetishishda barcha fanlarning o'z o'rni bor, lekin bu borada ona tili bizning hayotimizda alohida ahamiyat kasb etadi, chunki jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi.

Xuddi shuningdek, bizning ona tilimiz bo'lmish o'zbek tili qadimiy va boy tarixga ega. O'zbek tilining har tomonlama taraqqiy topishi va til sifatida maydonga chiqishida Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Alisher Navoiy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy kabi ilm-fan va adabiyot namoyondalarining xizmati va qoldirgan merosi ham muhim o'rinni egallaydi.

O'zbek adabiy tili ayniqsa Amir Temur hamda Temuriylar davrida rivojlanishning yangi, yuksak bosqichiga ko'tarildi. Buyuk shoir va mutaffakir Alisher Navoiy xazinasidan o'rinni olgan asarlarini aynan ona tilimizda yaratib, uning shuhratini dunyoga tanitgan.

Bundan bir necha yil muqaddam, aniqrog'i, 1989-yil 21-oktabr kuni biz uchun eng muhim bo'lgan qaror qabul qilingan, ya'ni bizning sevimli va qadrli bo'lgan ona tilimizga davlat tili maqomi berilgan.

Yurtimizning mustaqillikka ilk qadamlari ham til bilan bog'liq. Hali mustaqilligimiz e'lon qilinmasdan turib 1989-yil 21-oktabrda O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligi Yurtimiz uchun katta yutug' bo'lgan.

Hozirgi o'zbek adabiy tilining to'liq shakllanganligi va ulkan ijtimoiy vazifani bajarayotganligi hech birimizga sir emas. Bu til diyorimiz vakillari uchun umumiyl til sifatida shakllandи.

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublikamizda davlat ishlarining, o'qish-o'qitish, ta'lim-tarbiya, targ'ibot-tashviqot ishlarining shu tilda olib borilishi uchun juda katta imkoniyatlar yaratdi. Tilga bo'lgan munosabat o'zgardi, uning barcha imkoniyatlarini o'rganish ishlari keng ko'lamma olib borilmoqda.

Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda yoshlar tarbiyasida ham tilning o'rni beqiyosdir. Shu yurtda yashayotgan har bir o'g'il-qizda ona tiliga nisbatan yuksak ehtirom tuyg'usi bo'lishi kerak.

O'zbek tilini o'rganish va uning mavqeini oshirishda qilinadigan ishlari hali anchaginani tashkil qiladi. Xususan, kundalik muloqotda, ommaviy axborot vositalarida o'zbek tili nutq madaniyatini oshirish lozim.

Tilga e'tibor faqat bayram kunlarida emas, balki har doim davom etishi kerak. O'zbek tili-onam tilimiz va davlat tili ekan, uning sofligi, go'zalligi, qadr-u qimmati uchun kurashish har birimizning fuqarolik burchimizdir.

Shu bois, ona tilimizning barcha go'zal ifodalarini ko'z qorachig'idek asrab-avaylashimiz darkor!!!

Zero, Yurtimizda olib borilayotgan til siyosati o'zbek tilining taraqqiy etishi uchun katta imkoniyatlar yaratib bermoqda va hozirgi kunda tilshunoslarimiz tomonidan sohaga doir bir qator tadqiqotlar olib borilmoqda.

Shuning uchun ham, davlat tilimiz bu bizning milliy g'ururimizdir.

Bitayin ta'rifing ming bir shevangda,
Ulug' tarixing bor nihol, mevangda,
Qodiriy, Cho'lponlar ming bir jilvangda,
Zulfiyang barhayot ijod kemangda,
Tillar ko'p-u dunyoda, bitta, bir dona,
Ona tilimiz biz uchun dur-u durdona.

МАКТАБ ГЕОГРАФИЯСИНИНГ МАЗМУНИ

Ibragimova Shoira Turdimuratovna

Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumani

62-umumiy o'rta ta'lif maktabi Geografiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Hozirgi maktab geografiyasining mazmuni asosan 60-yillarning oxirida ishlab chiqilgani, ungacha maktab geografiyasining mazmuni 30-yillarda bor bo'lgan dasturlari asosida ishlab chiqilgani, 60-yillarga kelib maktab geografiyasining tubdan qayta ishlab chiqish zaruriyati tug'ilganligi haqidagi fikrlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Relyef, iqlim, quruqlik suvlari, dunyo okeani, tuproqlar, iqtisodiy rayonlar, mehnatning geografik bo'linishi.

Hozirgi maktab geografiyasining mazmuni asosan 60-yillarning oxirida ishlab chiqilgan, ungacha maktab geografiyasining mazmuni 30-yillarda bor bo'lgan dasturlari asosida ishlab chiqilgan. 60-yillarga kelib maktab geografiyasining tubdan qayta ishlab chiqish zaruriyati tug'ildi. Bu vaqtлari geografiya fanida katta zarur o'zgarishlarga yo'l berildi. Tabiat boyliklarining juda keng va har tamonlama foydalanish, yangi yerkarni o'zlashtirish geografiyaning zarur fundamental qatoriga kirdi. Tabiiy resurslardan foydalanishda, tabiatni qo'riqlashda, ishlab chiqarishning hududiy joylashuvida va rivojlanishida geografiyaning ahamiyati va o'rni ortdi. Geografiya amaliy konstruktiv fanga aylana boshladi. Geografiya nazariyasini yaratishda, yangi uslublar ishlab chiqildi va qo'llanishda katta muvofaqiyatlarga erishildi. Geografiya fani rivojlanishindagi erishilgan muvaffaqiyatlar, geografiya fanining mazmuni bilan maktab geografiyasi mazmunini orasidagi bog'liqlikning uzilishga tushuviga olib keldi. Bu esa maktab geografiyasining mazmunini qaytadan tubdan ishlab chiqish zarurligi tug'ildi. Bunda asosiy e'tibor maktab geografiyasining ilmiyligini oshirishga yo'naltirildi. Maktab geografiyasini qayta ishslash zarurligi, majburiy o'rta ta'limga o'tilishi bilan bog'liqdir.

Maktab geografiyasi mazmunini ishlab chiqishda juda ko'pchilik olimlar, metodist olimlar, o'qituvchilar hissalarini qo'shdi. Maktab geografiya kurslarining rivojlanishi quyidagi yunalishlar bo'yicha olib boriladi,

- maktab geografiyasi mazmunining ilmiy asosalari yo'llarini kuchaytirish yo'llarini qidirish,

- maktab geografiyasining mazmunini o'quvchilarga tushinarli bo'lishini ta'minlash,
- Murakkab va ikkinchi darajali ma'lumotlarni darslikdan olib tashlash,
- maktab geografiyasining tarbiyaviy imkoniyatlarini oshirish.

Maktab geografiyasining asosiy qoidalarining biri tabiiy va iqtisodiy geografiyanı mukammal o'rganish hisoblanadi. Bu esa maktab geografiyasida tabiiy va iqtisodiy geografiyasining asosini to'liq shakllantirishga imkon beradi. Maktab geografiya kurslari zinapoya kabi tuzilishga ega. Bunda ta'limlar asta-sekin pastki sinflardan, yuqori sinflarga tamon murakkablashib, boradi qaytalanishlarga yo'l qo'yilmaydi, lekin yangi ma'lumotlar ilgari o'tilgan ma'lumotlar asosida beriladi. Bu esa o'quvchilarning yangi ma'lumotlarni umuman darslikni yaxshi o'zlashtirishga imkon beradi.

Geografiyaning ayrim kurslarini o'rganish tartibi quyidagilardan iborat:

IV- sinfda tabiatshunoslik

V - sinfda tabiiy geografiya boshlang'ich kursi

VI- sinfda materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi

VII- sinfda Turkiston tabiiy geografiyasi va O'zbekiston tabiiy geografiyasi

VIII- sinfda O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi

IX- sinfda yer yuzi iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi

Tabiatshunoslik kursi tabiiy hodisalarni, moddalarni yer haqidagi juda yengil ma'lumotlani beradi. Bu kurs quyidagi bilimlardan iborat,

1.Vatanimiz tabiatini yer tamonlarini aniqlash (gorizont chizig'i, kompas bilan joyni aniqlash, plan va mashtab, sinf, muktab, shahar plani joyning planini o'qish, plan va geografik xarita. Vatanimiz xaritasi.

2.O'zbekiston tabiatining har turliligi cho'llar (tabiat, barxanlar, cho'l tabiatining inson tamonidan o'zlashtirilishi, o'simlik va hayvonotlar, cho'ldagi ko'k, sariq barglar, cho'l aholisining turlari, Qizilqumda, tog' tabiatni,

3.O'zbekiston tabiatini muhofaza qilish, tabiat va insonning o'zaro ta'siri, tuproq, suv va havoni muhofaza qilish, Qizil kitob, qo'riqxonalar, O'zbekiston tabiatni yadgorliklari.

Tabiiy geografiya kurslari o'quvchilarga yer qobiqlari to'g'risida ularning bog'liqliklari haqida, har bir materik va okeanning tabiatni, Turkiston va O'zbekiston tabiatni haqida ma'lumotlar beradi. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kurslari o'quvchilarga O'zbekiston va jahon iqtisodiyotining asosiy xususiyatlari haqida bilimlar beradi. Maktab geografiyasini mazmunining murakkablik qismlari. Maktab geografiyasining mazmuni bilim, ko'nikma va dunyo qarash g'oyalarini o'z ichiga oladi. Ta'lim berish imkoniyatlari. Ta'lim tashqi dunyonni, ob'ektiv borlikni ongimizda shakllantirishning yozma va og'zaki turlari. Bilimlar nazariy va emperik bilimlarga bo'linadi.

Hozirgi vaqtida geografiyada nazariy bilimlarning ulushi ortib bormaqda. Geografiya kurslarining barcha tushunchalari (relyef turlari, iqlim turlari, iqtisodiy rayonlar, mehnatning geografik bo'linishi, sabab va oqibatlar) zarur o'rinni egallaydi. Tushunchalar abstrakt tafakkur natijasida hosil bo'ladi. Tushuncha bilishning asosiy birligi hisoblanib umumiyligi va aniq tushunchalarga bo'linadi. Umumiy tushunchalar deganda alohida hodisalar haqida emas, balki umumiy bitta tur nomga ega bo'lgan voqealari va hodisalar tushiniladi. Masalan, daryolar, tog'lar, xalq xo'jaligi tarmoqlari, iqtisodiy rayon. Nazariy bilimlar narsa va hodisalarning mohiyatini, ular orasidagi yo'nalish va bog'liqliklarni shakllantiradi. Nazariy bilimlarni- umumlashtirilgan ta'limlar bo'lib, ularga nazariy, qonuniyatlar, sabab va oqibatlar, tushunchalar kiradi. Emperik bilimlar geografik borlik va hodisalarni tashkil qiluvchi xosiyatlarni shakllantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O'zbekiston geografiya jamiyati axbroti, 41-jild. T.,2013
- 2.P.Baratov "Tabiatni muhofaza qilish va o'zgartirisj". T.,1984
- 3.A.A.Rafiqov "geoekologik muammolar", O'qituvchi. T.,1997

**"УМУМТАЛЬИМ МАКТАБЛАРДА ТАЪЛИМ
ТАРБИЯНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ"**

**"ESSENTIAL ISSUES OF EDUCATION IN SECONDARY
SCHOOL"**

**"АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ОБРАЗОВАНИЯ В
СРЕДНЕЙ ШКОЛЕ"**